

**QADIMIY XLL JADVAL QONUNIDA KELTIRILGAN LL JADVAL QONUNIDAGI  
NORMALARNING O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGI BILAN O`XSHASH  
VA FARQLANUVCHI JIHATLARIGA TASNIF****Abdurofiyeva Nodirabonu***Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti „Yurisprudensiya“ (faoliyat turlari bo`yicha) yo`nalishi 1-bosqich talabasi***Bo`riyev Odil Qobilovich***Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi kafedrasi katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi kundagi mustahkam, davr talabiga javob beruvchi huquq tizimining mavjutligi har bir insonni quvontirmay qo`ymaydi. Biroq bir savol hech birimizni o`ylantirmay qo`ymaydi. Hozirgi huquq tizimining vujutga kelishiga nima asos bo`lgan va bu huquq tizimi nima uchun tajribalar asosida yuzaga kelgan ?

*Albatta buning asosiy sababi azaldan , qadimgi davrlardan huquq tizimining vujutga kelgani hamda bosqichma-bosqich rivojlanganidir. Shunday qadimgi zamon qonunlar to`plamidan biri bu- Qadimiy Xll jadval qonunidir. Ushbu maqolada ushbu qonunning O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga o`xshash va farqli jihatlari haqida keng yoritib o`tilgan.*

**Kalit so`zlar:** Xll jadval qonuni, ll JADVAL, Gay Institutsiyalari, kafillik summasi, ass, Kafillik akstessor belgi, Kafillik shartnomasi.

**JADVAL**

1.(Gay Institutsiyalari ,IV.14:1000 ass va undan ortiq da`volar bo`yicha pontifiklar kassasiga 500 assdan iborat kafillik summasi qo`yilar edi. 1000 assdan kam da`volar uchun 50ass, bu Xll jadval qonunlari tomonidan o`rnatilgan edi. Agar tortishuv qandaydir insonning erkinligi ustida borayotgan bo`lsa, uning narxi nihoyatda baland bo`lsa-da, yuqoridagi qonunda tortishuv atigi 50 assdan iborat kafillik summasi haqida borishi ko`rsatilgan)

2. “Agar og`ir kasallik yoki sud kunining kimnidir xoinlikda ayblashga to`g`ri kelib qolishi sudyaga ( to`sinqilik qiladigan bo`lsa ), uchinchi hakam vositachi tortishuvchi tarafga sudga kelishga to`sinqilik qilsa, unda sud tortishuvlari boshqa kunga qoldirilishi kerak.”

3.”Guvohlik ko`rsatmalari yetishmayotgan tortishuvchi sudga kelmagan guvohning eshigi oldigs borsin va hamma eshitadugan qilib, uch kun davomida uni insofga chaqirsin.”

1. Ushbu qadimiy Xll jadval qonunida keltirilgan lljadval qonunidagi 1-norma dastlabki kafillik shartnomaviy munosabatlari bo`lib , hozirgi kunda qonunchiligmizda kiritilgan Kafillik shartnomasi va bitimlarini kelib chiqishi uchun hal qiluvchi rolni bajaradi.

Kafillik nima ?

Kafillik bu – bir shaxs – kafilning boshqa shaxs o`z majburiyatini to`la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori odida javob berishni o`z zimmasiga oladi.

Kafillik shartnomasiga asosan, bir taraf kafil, boshqa shaxs o`z majburiyatlarini to`la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o`z zimmasiga oladi.

Kafillikning asosiy funksiyasi boshqa ta`minlovchi usullar kabi majburiyat bajarilishini ta`minlashning o`ziga xos xususiyatiga ega bo`lib , qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarishni rag`batlantirmasdan, ehtimoliy yo`qotishlar ro`y berganda kreditorning huquq va manfaatlarini qoplash vositasi bo`lib xizmat qiladi.

Kafillik akstessor belgiga ega bo`lib, xususiy huquqiy ta`minlovchi chora sifatida shartnomaviy xarakterni o`zida namoyon etadi. Kafillik qat'iy pullik majburiyatdir.

Kafillik shartnomasi bir tomonlama konsensual va haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Kafillik shartnomasi tekinga tuzilishi mumkin, agar bu haqda FKning 297-moddasiga muvofiq shartnomada ko`rsatilgan bo`lsa. Lekin bunday bo`lishi kafilni yetkazilgan zararni to`lashni qarzdordan talab qilish huquqidan mahrum qilmaydi.

Majburiyatning bajarilishini ta`minlash usuli sifatida ko'rildigan kafillikning mohiyati shundaki, kreditor asosiy majburiyat bajarilmagan holda o`z talablarini faqat asosiy qarzdorgagina qo`ymay, balki kafilga nisbatan ham qo`ya oladi. Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bu holda taraflar kafillik to`g`risida alohida yozma shartnoma tuzishlari shart bo`lmaydi.

Kafillik belgilanishida kafil asosiy qarzdor tomonidan beriladigan tilxatda qarzdor tomonidan majburiyatning lozim darajada bajarilishi javobgarligini o`z zimmasiga olganligini ko`rsatib belgi qo`ysa yoki qarzdorning muayyan majburiyat yuzasidan kafil bo`lishini kreditor nomiga yozgan xatida bildirsa ham kifoya. Kreditor tomonidan da'vo bir vaqtning o`zida kafil va qarzdorga nisbatan qarzdor tomonidan asosiy majburiyat bajarilmaganligi munosabati bilan taqdim etilib, solidar javobgarlik to`g`risidagi qoidalarni qo'llash lozim bo`lgan hollarda, bunday javobgarlik faqat kafil yoki faqat qarzdorga yuklatilishi mumkin emas. Kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob berishlari kerak.

Kafillik asosiy majburiyatga qo'shimcha xarakterda bo`lishi shundan iboratki, kafillik bilan faqat asosiy talab ta`minlanishi mumkin. Agar asosiy shartnoma uning shakliga rioya qilinmaganligi sababli yoki shartnomada ishtirot etuvchi taraflarning muomalaga layoqatsiz bo`lishi tufayli va boshqa shu kabi sabablar bo'yicha haqiqiy emas deb topilsa, mazkur shartnomaga qo'shimcha hisoblangan kafillik shartnomasi ham o'zining yuridik kuchini yo'qotadi.

Kafilning javobgarligi hajmi asosiy majburiyat yuzasidan qarzdorning javobgarligidan oshiq bo`lishi mumkin emas. Qarzdor qanday hajmda javobgar bo`lsa, kafil ham shu hajmda javobgar bo'ladi.

Kafilning javobgarligi qarzdor tomonidan kafillik bilan ta'minlangan majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi holatlarida vujudga keladi. Bu holda, bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik faqat majburiyatga

nisbatan bo'lishi lozim. Odatda, kafil kreditor oldida solidar javobgar bo'ladi. Bunda qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida majburiyatlar subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

2. Xll jadval qonunining tarkibiga kiruvchi ll-jadvaldagi ikkinchi normada asosan sudda yuz beradigan tortishuvlar keying qoldirilishi haqida so`z boradi.

Bunday vaziyatda , ya`ni sudni keying qoldirishga sabablar ushbu qonunga asosan 3 ta holat ko`rib chiqilmoqda:

1)Agar og`ir kasallikga chalinish yuz bersa;

2)Sudning xoinlikda ayblash to`g`risidagi hukmiga to`sinqinlik qilinsa ;

3)Ixtiyoriy hakam tortishuvchi taraflardan birini sudga kelishiga to`sinqinlik qilsa sud boshqa kunga qoldiriladi.

Biroq ushbu norma hozirgi kundagi qonunchiligidan qanday ?

223-modda. Ish muhokamasini keyinga qoldirish

Sud ish muhokamasini quyidagi hollarda keyinga qoldirishi mumkin:

1) tartib fuqarolar tomonidan ommaviy tarzda buzilganda;

2) raislik qiluvchi tomonidan ogohlantirilganidan so'ng prokuror yoki advokat uning farmoyishlariga bo'y sunmaganida;

3) taraflar (uchinchli shaxslar) tomonidan sud majlisidagi tartib buzilganda;

4) o'ziga sud chaqiruv qog'ozni yoki boshqa xabarnomalar topshirilganligi to`g`risida ma'lumotlar mavjud bo'lmanishda ishtirok etuvchi shaxslardan biror-biri sud majlisiga kelmaganda;

5) tegishli tarzda xabardor qilingan ishtirok etuvchi shaxslardan biror-biri sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmaganda;

6) tegishli tarzda xabardor qilingan taraflar sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmaganda, agar ulardan birortasidan ham sud muhokamasi ularning ishtirokisiz o'tkazilishi to`g`risida ariza kelib tushmagan bo'lsa;

7) sud majlisiga guvoh, tarjimon, ekspert yoki mutaxassis kelmaganda, agar ularning ishtirokisiz ishni ko'rish imkonini bo'lmasa;

8) da'vogar ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rishga rozi bo'lmanishda;

9) qarshi da'vo taqdim etilganda;

10) sud majlisi yuritishda texnik vositalaridan, shu jumladan videkonferensaloqa tizimidan foydalanilganda texnik nosozliklar kelib chiqqanda;

12) ishda ishtirok etish uchun boshqa shaxslar jalb qilinganda yoki boshqa protsessual harakatlar amalga oshirilganda.

Sud ishni sud majlisida ko'rish imkonini bo'lmanishda boshqa hollarda ham muhokamani keyinga qoldirishi mumkin.

Sud muhokamasi uni keyinga qoldirish uchun asos bo'lgan holatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan muddatga, sud muhokamasining ushbu Kodeksda nazarda tutilgan muddati doirasida keyinga qoldirilishi mumkin.

Sud ish muhokamasini keyinga qoldirganda, keyingi sud majlisining vaqtini belgilaydi, bu haqda hozir bo'lgan shaxslarga imzo qo'ydirgan holda e'lon qiladi. Sudga

kelmagan va sud protsessida ishtirok etish uchun yangidan jalb qilinadigan shaxslar keyingi sud majlisining vaqtiga to'g'risida ushbu Kodeksning 16-bobida nazarda tutilgan tartibda xabardor qilinadi.

Keyinga qoldirilgan ishni ko'rish qolgan joyidan davom ettiriladi. Biroq, agar ish ushbu Kodeksning 39-moddasida sanab o'tilgan yangi shaxslarni jalb qilish sababli keyinga qoldirilgan bo'lsa, ish muhokamasi boshidan boshlanadi.

224-modda. Ish muhokamasi keyinga qoldirilganida guvohlarni so'roq qilish

Ish muhokamasi keyinga qoldirilgan taqdirda, agar sud majlisida ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar hozir bo'lsa va guvohlarning ikkinchi marta kelishi qiyin bo'lsa, sud kelgan guvohlarni so'roq qilishi mumkin. Ushbu guvohlarni keyingi sud majlisiga takroran chaqirish faqat zarur hollardagina amalga oshiriladi.

Ushbu moddalar Fuqarolik protsessual kodeksiga taluqlidir.

3) . XII jadval qonuning tarkibiga kiruvchi II-jadvaldagি uchinchi normada keltirilgan guvohlik haqida qadimiy normaga juda ajoyib tarzda amal qilinishi kerak bo'lgan. Unga ko'ra sudga kelmagan guvohga nisbatdan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

1) Javobgar yoki Da`vogar tomonida guvohning ko`rsatmasiga ehtiyoj sezilsa, guvohning uyiga borishgan va eshigini orqasida turishgan;

2) Hamma eshitadigan tarzda uning eshigi tagida 3 kun baqirib guvohni insofga chaqirishgan.

Endi bitta savol tug'iladi ,ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasida qanday amalga oshiriladi ?

Bu savolga O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK PROTSESSUAL KODEksi orqali javob izlaymiz.

82-modda. Guvohni chaqirish to'g'risidagi iltimosnomasi

Guvohni chaqirish to'g'risida iltimosnomasi taqdim etuvchi shaxs guvohning ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qanday holatlarni tasdiqlay olishi mumkinligini ko`rsatishi va sudga uning familiyasi, ismi, otasining ismini, yashash joyini yoki ish, o'qish joyini ma'lum qilishi shart.

56-modda. Guvoh

Ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi.

Quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas:

vakil, himoyachi, advokat yoki mediator vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida — fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha advokatlar, mediatorlar;

jismoniy nuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to'g'ri idrok qilishga yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatuylar berishga layoqatsiz shaxslar.

57-modda. Guvohning majburiyatları va javobgarligi

Guvoh sifatida chaqirilgan shaxs sudga kelishi va to'g'ri ko'rsatuylar berishi shart.

Agar guvoh sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud chaqiruvi bo'yicha kelmasa, shuningdek ko'rsatuvarlar berishdan bo'yin tovlasa, u ushbu Kodeksning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortilishi mumkin.

Jarima solinishi guvohni sudga kelish va ko'rsatuvarlar berish majburiyatidan ozod etmaydi.

Demak hozirgi kundagi qonunchiligidan ko'ra guvohlarning sud majlisiga qatnashishi majburiydir va kelmagan guvohlarga nisbattan javibgarlik mavjutdir.

#### Xulosa

Hozirgi kunda qanday kuchli , adolatli qonunlardan foydalanayotgan bo`lsak , bularning kelib chiqishi borib dastlabki urf – odatlar ,qadimiy davlatlar tomonidan qabul qilingan qonunlarga borib taqaladi .To`g`ri u qonunlar adolatli , insonparvarlik g`oyalalariga asoslangan bo`lmasligi mumkin , ammo o`z davri uchun ushbu qonunlar mukammal qonun edi desak mubolag`a bo`lmaydi. Kun kelib hozir biz amal qilayotgan qonun hamda normalar ham keljak avlod uchun o`z mukammaligini yo`qotadi va ular ham o`z zamoniga , talabiga mos qonunlarni qaror toptirishadi. Zero “ Qonunlar zamon o`zgargan sari o`zgarib , yangilanib, sayqallanib borayveradi”.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1.Rim huquqi darsligi (2022-Toshkent.Yuridik adabiyotlar publishish:V.R.Topildiyev, B.R.Topildiyev, M.Y.Usmonova)

2.O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi

3.<https://finlit.uz>

4.<https://lex.uz>

5.<https://yurxizmat.uz>

6.<https://forum.oyina.uz>